



**YOSHLARNING ILMIY VA MA'NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA  
ADABIYOTNING TAXLILIIY O'RNI**

**Jonibekova Moldir Erlan qizi**

*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti  
3-kurs 305-guruh talabasi*

**Allaberdiyeva Mushtariy Alijon qizi**

*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti  
2-kurs 202-guruh XT talabasi*

**Ilmiy rahbar: Xidirova Shahlo Shavkatovna**

**Annotasiya:** Bugungi kun nuqtaiy nazaridan ta'lif va tarbiya uyg'unligini taminlashda adabiyotimizning yirik shoirlarning asarlari orqali ijodini o'rganish yoshlaringizning kamolotidagi tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini inobatga olgan holda adabiy asarlarni o'rganishning ilmiy va ma'naviy tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr muloxaza yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** xalqparvarlik,adolat,razolat,haqiqat,odillik.

**Аннотация:** С сегодняшней точки зрения, для обеспечения гармонии обучения и воспитания, мы считаем научное и духовно-воспитательное значение изучения литературных произведений, принимая во внимание большое воспитательное значение обучения творчеству нашей литературы через произведения великие поэты в развитии нашей молодежи.

**Ключевые слова:** патриотизм, справедливость, радость, правда, справедливость.

**Abstract:** From today's point of view, in order to ensure the harmony of education and upbringing, we consider the scientific and spiritual educational importance of studying literary works, taking into account the great educational importance of learning the creativity of our literature through the works of great poets in the development of our youth.

**Key words:** patriotism, justice, joy, truth, justice.

E'tibor bersangiz, kasb egallamay o'qishni bitirganlar hayotda qiyonaladi, ish topolmaydi. Kimning qo'lida hunari bo'lib, chet tilini bilsa, yo'li ochiq. Sizlarda shunday imkoniyat bor. O'zingizni qiynab, qunt bilan bilim oling, hunar o'rganing. Qarorlar, sa'y-harakatlar qachon natija beradi? Mutaxassis zo'r bo'lsa. Investorlar ham kadrlarning bilim va malakasiga ishonib keladi. Mamlakatimizning eng katta boyligi - yoshlari, - dedi Shavkat Mirziyoyev [1]. Adabiyotimiz tarixda juda murakkab jarayonni bosib o'tgan adib Berdaq serqirra ijod qilgan vakillaridan xisoblanadi. Asosan, ko'chmanchilik asosida chorvachilik bilan shug'ullangan qoraqalpoqlar uzoq asrlarlik

hayotini jabru-stamlarni boshidan kechirdi. Ular goh Buxoro, goh Xiva xonliklari tarkibiga kirgan joylarda istiqomat qilgan.

Adabiyotimiz tarixiga nazar solsak doimo tarbiya va ta'limni ilgari suruvchi g'oyalar bilan sug'orilgan adabiy merosimiz bizni marifat tomon chorlaydi. Bizning zamonamizda ham ta'lim va tarbiyaga alohida davlatimiz tomonidan katta etibor ila ko'plab sarmoyalalar ajratilmoqda. Shu o'rinda davlatimiz rahbari takidlagan quydagi so'zlarga etibor qaratsak: Hamma sa'y-harakatlarimiz tagida ta'lim bor. Qaysi hududga borsam, yoshlar bilan, katta-katta korxonalardagi ishchilar bilan suhbatlashaman. Ulardan «Sizni nima qiynaydi» deb so'rasam, bilim yetishmasligini aytadi. Rivojlangan davlatlar bugungi iqtisodiyotiga qanday erishgan? Bilim evaziga! Shuning uchun avvalboshdan ta'limni yaxshilashga harakat qilyapmiz. 2023-yilga “Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili”, deb nom berdik. Endi maktablarimizga mutlaqo yangi muhit va sifat kirib kelishi kerak, - dedi Prezident Sh.Mirziyoyev [2].

Shu jumladan ta'lim va tarbiya jarayoniga qoraqalpoq xalqining adabiyotini mustaqil ravishda ham og'zaki ham yozma shakilga kelishi bilan quydagilarni ko'rib chiqsak. Qoraqalpoqlarning adabiyot tarixi asosan xalq og'zaki ijodi janrlari bilan bo'lgan ertak, qo'shiq va dostonlardan iborat. Qoraqalpoq xalqinining “Qirq qiz”, “Alpomish”, “Er qo'shay”, “Mast podsho”, “Shahriyor” singari dostonlari xalq orasida juda mashhur bo'lib Qoraqalpoq xalqining og'zaki ijodi boyligidan dalolatdir. Qolaversa o'zbek adabiyotining O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodida mashhur bo'lgan “Oshiq G'arib”, “Yusuf va Zulayxo”, “Oshiq Xamro”, “Toxir va Zuxro”, “Yusuf Axmad” [3] kabi dostonlar ham qoraqalpoq xalqi orasida keng tarqalgan vas hu bilan barcha yoshdagi fuqarolar ongiga ezgulik urug'larini qadagan.

Adabiyotimizdagi bu dostonlarning deyarli barchasida vatanparvarlik, xalqparvarlik talqinlari bosh g'oyaviy o'rinni egallaydi. Bu g'oya ayniqsa “Qirq qiz” dostonida ko'zga yaqqol tashlanadi. Dostonda hikoya qilinishicha, sarkarda Guloyim qirq qiz va xalq bilan birgalikda Eron shohi Nodirshoxga hamda qalmoq xoni Surtayga qarshi jang qilib, mardlik va qahramonlik namunasini ko'rsatadilar. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida turli mavzudagi qo'shiqlar ko'p uchraydi. Shulardan eng ko'p tarqalgani jaydari qo'shiq deb ataladigan turidir. Bu qo'shiqlar xalq hayotining turli tomonlarini qamrab olgan bo'lib, sodda, tushunarli qilib aytilgan. Ayniqsa yoshlar orasida ko'proq tarqalgan bo'lib, unda sevgi – muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. Yuqoridagi kabi yuksak shakildagi vatanparvarlik va xalqga xizmat qilish kabi yuksak mavzudagi ijodni qoraqalpoqning buyuk yozuvchisi bo'lgan Berdaq ijodida xam kuzatish mumkin. Xususan Berdaqning “Axmoq podsho” nomli dostonida zolimlarni qattiq tanqid ostiga olibadolatsiz xonlarni va beklarni qoralaydi. Ahmoq podsho asari orqali Qoraqalpoq xalqining barcha muammolarini va butun dunyodagi insoniylik tushunchalari bo'lgan vatanparvarlik,adolatlilik, kabi g'oyalarni ulug'lanishini o'zining asari talqinida yoritgan.

Asarning mazmuni quydagicha: Asarda Ahmoq podsho uzoq vaqt farzand ko'rmaydi. Keyin uning Gulim ismli xotini qizli bo'ladi. Podsho esa bundan g'azablanib, xotini va qizini yo'q qilishni buyuradi. Dono cho'ri ayol Zoraning tadbirkorligi tufayli Gulim va Gulzor omon qoladi. Podshoning qizi Gulzor ulg'aygach, otasini borib ko'radi. Axmoq podsho esa o'z qiziga oshiq bo'lib qoladi. Qizi podsho taklifini rad etgach, uni itlarga talatib o'ldirishni buyuradi. Eng vahsiy itlar ham qizga yaqinlashmaydi. Aksincha, itlar tilga kirib, podshoni qarg'aydi. Gulzor uzoq vaqt podsho ko'zidan yashirinish maqsadida o'rmonga chiqib yashay boshlaydi. Keyin esa kelib Axmoq podshoni o'ldiradi [4].

Asarning mazmunidan ham ko'rinish turibdiki, xalq boshiga kelayotgan kulfatlarga Axmoq podsholarga o'xshash zolim va benomus hukmdorlar sababchi ekanligi xatto o'z qilmishidan afsuslanmaydigan zolimlar xorlikda o'lishi bilan yakunlanadi. Qoraqalpoq xalq adabiyoti kechroq yozma adabiyotga ega bo'lgan bo'lsada, unda xalq hayotini haqqoniy aks ettiruvchi bir qancha asarlar yaratildi. Bu yaratilishda yuksak darajada etirof etiluvchi Berdaq ijodi kata axamiyat kasb etadi. Qoraqalpoq adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishida xalq og'zaki ijodining roli katta bo'lsa uni yozilishida birinchiliklar qatorida Berdaq ham o'z munosib xissasini qo'shgan adib xisoblanadi. Ko'pgina qo'shiqlar, latifalar, masallar, ertaklar, dostonlar qoraqalpoq xalqi shoirlari tomonidan kuyga solinib ijro etilishida ham Berdaqning o'rni beqiyosdir. Xalq shoiri ham san'atkor, ham yozuvchi sifatida mashhur bo'lgan Berdaq doimo xalq xurmatida bo'lgan. Ikkinchidan, qoraqalpoq yozma adabiyotining shakllanishida bevosita o'zbek adabiyotining roli katta bo'lgan. O'zbek xalqi bilan yonma-yon yashagan qoraqalpoq xalqi madaniyatining vakillaridan bo'lgan Berdaq ham Buxoro va Xiva madrasalarida o'qigani boradi, ammo iqtosiy va siyosiy jarayonlar Berdaq madrasada taxsil olishdan to'sadi.

Qoraqalpoq adabiyotida birinchilar qatorida bo'lib bahshichilik jaroyonlarini kuyga solib ijod qilgan shoir Berdaq ko'plab ijod jarayonlarini xalqning turmish jarayonlaridan olib yozgan. Berdaq ijodidagi barcha jarayonlarni xalq bilan hamohang tarzda yaratgan shoirni adib sifatida o'rganamiz. Berdaqning asarlari ham og'zaki, ham yozma shaklda xalq orasida ommalashib tarqalgan. U Qoraqalpoq dostonchiligining yirik vakillaridan bo'lib, repertuarida "Axmoq podsho", dostoni xalqni extromiga sabab bo'lgan. Kambag'al xalqning og'ir turmushi haqida Xalq uchun, Soliq, singari she'rlarni yozib o'zining zamonasidagi ochko'z mansabdor beklar va xonlarni tanqidiy shaklda qo'rmasdan yozaolgan buyuk istedod egasi Berdaq chinakam adabiyotimiz va millatimiz qahramoni deya tarif bersak mubolag'a bo'lmas.

Xulosamiz so'ngida yoshlarning ilmiy va ma'naviy salohiyatini oshirishda adabiyotning taxliliy o'rni sifatida adib va shoir Berdaqning Axmoq podsho dostoni misolida yoshlarda odillik xalqchillik kabi xislatlarni yanada mustahkamlash, tanqidiy fikir mulohazalar qiluvchi va yoshlarda ochko'z podshoni va yon atrofidagi poraxo'r amaldorlar, turli tovlamachilarni fosh qilish kabi xislatlarni yanada oshirish. Xotin-

qizlar ozodligi mavzusiga ham daxildorlik xissini ayni shu doston orqali she'rida yoritilib berilgan. Shu bilan birga bu she'riy dostonda ko'p xotinlilik kabi illatlar qattiq tanqid qilinadi. Berdaq yozgan illatlar bugungi zamonamizda ham mavjud va bu illatlarga birgalikda birlashib kurashish lozimligini Berdaq asarlari orqali xalqimizga va jamiyatimizning barcha azolariga hamda yosh avlod vakillari bo'gan talabalarga yetkizish muhum ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADADIYOTLAR:**

1. <https://president.uz/oz/lists/view/5854>
2. <https://president.uz/oz/lists/view/5798>
3. Berdaq. Tanlangan asarlar. T. 1978.
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq>
5. "Ma'naviyat yulduzlari" (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999 yil) kitobidan olindi.
6. Nurmuxammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. T. 1978.
7. Tojiboyev A. Sir qo'shiqlari. T. 1970.
8. Kaipberganov T. Gumroxlar. Roman. T., 1978.
9. <http://www.samdu.uz/>
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz/)